



RINOLALIYA KELIB CHIQISH SABABLARI, TURLARI VA KORREKSIYA USULLARI

Mirzaqulova Ziyoda Ozod qizi.

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti

Maxsus Pedagogika 4-bosqich talabasi.

ANNOTATSIYA.

Ushbu maqolada rinolaliya nutq buzilishi sifatida ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Uning kelib chiqish sabablari, klinik belgilari, diagnostika usullari va korreksion yondashuvlari yoritilgan. Maqolada rinolaliya nuqt buzilishining bir turi sifatida atroflicha tahlil qilingan. Uning etiologiyasi, potogenizi, tibbiy korreksiya yo'llari ilmiy manbalar asosida yoritilgan. Shuningdek, erta tashxis va kompleks yondashuvning ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Rinolaliya, gipernazallik, giponazallik, nutq buzilishi, artikulyatsiya, logopedik korreksiya, tanglay yorig'i, rezonans.

Kirish:

Nutq insonning ijtimoiy hayotida muhim o'rin tutadi. Nutq orqali inson o'z fikrini bayon qiladi, muloqotga kirishadi va jamiyatda o'z o'rnini topadi. Nutq buzilishlari esa bolaning psixologik rivojlanishi va ta'lim jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Rinolaliya-ovoz tembirining o'zgarishi va artikulyatsiyadagi nuqsonlar bilan harakterlanuvchi nutq buzilishidir. Bu holat ovozning burun orqali ortiqcha yoki kam darajada chiqishi natijasida yuzaga keladi.

Rinolaliya yunoncha "rhinos"-burun va "lalia"-nutq sozlarida olingan bo'lib, nutq jarayonida burun rezonansining buzilishi natijasida yuzaga keladi. Bu



holat odatda tanglay (yumshoq yoki qattiq tanglay) tuzilishidagi nuqsonlar bn bog'liq bo'ladi.

Rinolaliya haqida umumiy tushuncha:

Rinolaliya- nutq paytida havo oqimining burun va og'iz bo'shliqlari o'rtasida noto'g'ri tahsimlanishi natijasida yuzaga keladigan tovush buzlishi. Odatda sog'lom nutqda yumshoq tanglay ko'tarilib, burun yo'lini yopadi va havo og'iz orqali chiqadi. Agar bu mexanizm buzilsa, tovushlar burun orqali chiqib, nutq "burunli" eshitiladi.

Rinolaliya ko'pincha quyidagi holatlar bilan bog'liq:

- Tug'ma tanglay yoriqlari
- Yumshoq tanglay falaji
- Adenoidlar yoki burun to'siqlari
- Jarrohlikdan keyingi asoratlar

Rinolaliyaning turlari:

Ochiq rinolaliya bu turda havo og'izdan chiqishi kerak bo'lgan paytda burun orqali chiqadi. Asosan tanglay yoriqlari (lab-tanglay yoriqlari) sabab bo'ladi.

Natijada:

- "p", "b", "m" kabi undoshlar noto'g'ri talaffuz qilinadi.
- Nutq tushunarsiz bo'lib qoladi
- Ovoz burun orqali chiqayotgandek eshitiladi

Yopiq rinolaliya bu holatda aksincha, burun yo'llari yopilib qoladi.

Sabablari :



- Adenoidlar
- Burun to'sig'i qiyshayishi
- O'tkir yoki surunkali rinit

Bunday bolalarda 'm', 'n' tovushlari og'iz orqali chiqadi va nutq g'alati eshitiladi.

3) Aralash rinolaliya ochiq va yopiq rinolaliya belgilarining birgalikda namoyon bo'lishidir.

Rinolaliyaning kelib chiqish sabablari:

1. Tug'ma sabablar:

- Homiladorlik davrida infeksiyalari
- Onaning zararli odatlari
- Genetik omillar
- Homiladorlikdagi taksikozlar

Homiladorlikning 2-3 oylarida homilaning yuz jag' tizimi shakillanadi. Shu davrda noqulay omillar tasiri tanglay yoriqlariga olib kelishi mumkin.

2. Oritirilgan sabablar:

- Jarohatlar
- Notog'ri otkazilgan operatsiyalar
- Nevrologik kasalliklar
- Adenoidlar va Lor kasalliklari

Erta aniqlash va tashxis

Rinolaliyani erta aniqlash muhim ahamiyatga ega. Quyidagi belgilar talab qiladi.

- Bola emishda qiynaladi
- Sut burun orqali chiqadi
- Nutqi juda burunli eshitiladi
- Ayrim tovushlarni umuman ayta olmaydi

Tashxis quyidagi mutaxassislar tomonidan qo'yiladi:



Logoped

Otorinolaringolog (LOR)

Stomatolog

Nevropotolog

Davolash va korreksiya usullari:

1.Jarrohlik davolash

Tanglay yoriqlarida plastik operatsiya (uranoplastika) o'tkaziladi.

Operatsiyadan so'ng logopedig mashg'ulotlar shart.

2.Logopedig ishlar:

Nafas mashqlari

Artikulyatsion mashqlar

Rezonansni to'g'irlash mashqlari

Tovush qo'yish va mustahkamlash

3.Psixologik yordam:

Bunday bolalarga psixologik yordam juda muhim bollar ko'pincha tortinchoq va tashqi ko'rinishidan uyalib qolishadi.Ularni ijtimoiy hayotga moslashtirish muhim rol o'ynaydi.

Zamonaviy texnologiyalar va davlat yordami.Bugungi kunda O'zbekistonda nogironligi bo'lgan bolalarni qo'llab-quvatlash bo'yicha keng islohatlar olib borilmoqda.Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirzayoyev

tashabbusi bilan Inklyuziv ta'lim joriy etildi.Maxsus maktab va bog'chalar faoliyati kengaytirildi,reabilitatsiya markazlari tashkil qilindi.Nogironligi bo'lgan bolalarga davlat nafaqalari oshirildi. Zamonaviy tibbiyotda: Endoskopik tekshiruvlar, 3D diagnostika, Lazerli operatsiyalar, Individual logopedik dasturlar qo'llanilmoqda.

Profilaktika

Homiladorlikni rejalashtirish

Shifokor nazoratida bo'lish



Zararli odatlardan voz kechish

Bolani erta logoped ko'rigiga olib borish

Xulosa:

Rinolaliya-nutq buzilishining murakkab turi bo'lib, u nafaqat fiziologik, balki psixologik va ijtimoiy muammo hamdir. Uni erta aniqlash va kompleks yondashuv asosida davolash orqali bolaning to'liq rivojlanishiga erishish mumkin. Jarrohlik, logopedik va psixologik yordam birgalikda olib borilganda natijasi tez va samarali amalga oshadi. Zamonaviy texnologiyalar va davlat tomonidan yaratilayotgan keng sharoitlar esa bunday bolalarning jamiyatda munosib o'rin egallashiga juda kata xizmat ko'rsatib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Ayupova M.Yu. Logopediya.-Toshkent O'qituvchi, 2018

Muminova L.R. Nutq buzilishlariva ularni bartaraf etish metodikasi. – Toshkent fan va texnologiya, 2020

Rasulova D.Sh. Maxsus pedagogika asoslari .-Toshkent:Tafakkur 2019

Volkova G.A. Logopediya.- Moskva:VLADOS, 2016

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi. Bolalar tug'ma tuqsonlarini erta aniqlash va reabilitatsiya qilish bo'yicha metodik tavsiyalar.- Toshkent, 2021

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. Inklyuziv ta'limni rivojlantirish

Konsepsiyasi.-Toshkent, 2020

Shavkat Mirziyoyev. Nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlashga oid farmon va qarorlar to'plami.-Toshkent, 2017-2024.

Internet manbalar:

WWW.Lex.Uz, WWW.edu.uz WWW.minzdrav.uz